Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati (“Qizilqumsement” AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining “wireless waterlight” qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements	1611
Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	1615
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan samaradorligi	1621
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
Qurilish korxonalari faoliyatida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish	1625
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	
Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1630
Ostonov Muhiddin Bahriddin o'g'li	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llari	1637
Normetov Bobur Sharifboyevich	
Oliy ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyatini tashkil etish va amalda rivojlantirish asoslari	1642
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	1649
Luqmonov Sharifxon A'zam o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi energetika sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishning ahamiyati va istiqbollari	1653
Uralov Temur Boxodir o'g'li	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA SEKTORIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

Uralov Temur Boxodir o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0001-6526-9217

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi energetika sektori hozirda liberalizatsiya va modernizatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Ushbu tadqiqot energetika korxonalarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni joriy etishning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini asoslaydi. Tadqiqot doirasida sohaning amaldagi holati, mavjud muammolar hamda MHXSni tatbiq etishning korxonalarning investitsion jozibadorligi va xalqaro raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: energetika sektori, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, MHXS, investitsiyalar, korporativ boshqaruv, moliyaviy shaffoflik, barqaror rivojlanish.

Abstract: The energy sector of the Republic of Uzbekistan is currently undergoing liberalization and modernization. This study substantiates the relevance and practical significance of implementing International Financial Reporting Standards (IFRS) in the country's energy enterprises. It analyzes the current state of the industry, identifies existing challenges, and evaluates the impact of IFRS adoption on firms' investment attractiveness and international competitiveness.

Key words: energy sector, International Financial Reporting Standards, IFRS, investments, corporate governance, financial transparency, sustainable development.

Аннотация: Энергетический сектор Республики Узбекистан в настоящее время переживает процессы либерализации и модернизации. Настоящее исследование обосновывает актуальность и практическую значимость внедрения международных стандартов финансовой отчётности (МСФО) на предприятиях энергетики страны. В рамках исследования проанализированы текущее состояние отрасли, существующие проблемы, а также влияние внедрения МСФО на инвестиционную привлекательность предприятий и их международную конкурентоспособность.

Ключевые слова: энергетический сектор, международные стандарты финансовой отчётности, МСФО, инвестиции, корпоративное управление, финансовая прозрачность, устойчивое развитие.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi energetika sektori bugungi kunda qizg'in o'zgarishlar davridan o'tmoqda. Markazlashgan boshqaruv tizimidan liberal bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni tarmoqning barcha darajalarida keng ko'lamli transformatsiyani amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish dinamikasi tahlili sohada barqaror o'sish tendensiyalarining mavjudligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasi iste'moli 2020-yildan boshlab istiqbolli o'sish sur'atlarini namoyon eta boshladi. 2020-yilda elektr energiyasi yetkazib berish hajmi 55,8 milliard kVt-soatni tashkil etgan bo'lib, keyingi to'rt yil davomida ushbu ko'rsatkich muntazam ravishda ortib bordi.

2021-yilda ko'rsatkich 59,1 milliard kVt-soatga yetdi, bu esa bir yillik davr mobaynida 3,3 milliard kVt-soat yoki 5,9 foizlik o'sishni bildiradi. 2022-yilda elektr energiyasi yetkazib berish hajmi 62,6 milliard kVt-soatni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3,5 milliard kVt-soat yoki 5,9 foizga oshdi. 2023-yilda ushbu tendensiya davom etib, ko'rsatkich 66,1 milliard kVt-soatga yetdi. Bu esa 2022-yilga nisbatan 3,5 milliard kVt-soat yoki 5,6 foizlik o'sishni anglatadi. 2024-yilda iste'molchilarga yetkazib berilgan elektr energiyasining umumiy hajmi 67,5 milliard kVt-soatga yetdi.

To'rt yillik davr yakunlariga ko'ra, energiya ta'minotining sezilarli darajada o'sganini kuzatish mumkin. Jumladan, 2024-yilda iste'molchilarga 2020-yilga nisbatan 11,7 milliard kVt-soat yoki 21 foizga ko'proq elektr



energiyasi yetkazib berildi. Ushbu ijobiy dinamika mamlakatning energetika sohasidagi barqaror rivojlanishi va aholining energiyaga bo'lgan ehtiyojining izchil ortib borayotganligini yaqqol aks ettiradi[1].

Biroq, yuqoridagi ijobiy statistik ko'rsatkichlarga qaramay, energetika tarmog'i hanuzgacha qator jiddiy strukturaviy muammolarga duch kelmoqda. Ulardan eng dolzarblaridan biri, asosiy ishlab chiqarish fondlarining jiddiy darajada eskirganligidir. Issiqlik elektr stansiyalarining o'rtacha yoshi 40 yildan oshgan bo'lib, ularning foydali ish koeffitsiyenti atigi 33-35 foizni tashkil etadi. Holbuki, zamonaviy bug'-gaz qurilmalarining foydali ish koeffitsiyenti 50-55 foizni tashkil etadi. Bu esa eski texnologiyalardan foydalanish energetika samaradorligini pasaytirayotganini anglatadi.

Bundan tashqari, elektr tarmoqlaridagi yuqori darajadagi yo'qotishlar ikkinchi muhim muammo sifatida e'tirof etiladi. Elektr energiyasini uzatish va taqsimlashdagi yo'qotishlar 20-25 foizni tashkil etmoqda. Holbuki, rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 7-8 foiz atrofida bo'lib, O'zbekistonda yo'qotishlar darajasi 2-3 barobar yuqoridir. Bu esa tarmoqning texnik holatini tubdan modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tarif shakllantirish tizimi energetika sohasidagi uchinchi jiddiy muammo sifatida e'tirof etiladi. Amaldagi tariflar elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bilan bog'liq xarajatlarni to'liq qoplamaydi. Bu holat, o'z navbatida, energetika korxonalarining investitsion salohiyatini cheklab, modernizatsiya jarayonlarining sustlashuviga olib kelmoqda.

Ushbu muammolarni kompleks tarzda hal etish zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot amaliyotini shakllantirishni talab etadi. Aynan shu kontekstdan kelib chiqib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish energetika korxonalari uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifaga aylangan.

Tadqiqotning dolzarbligi esa energetika sohasida olib borilayotgan chuqur institutsional islohotlar, texnologik modernizatsiya jarayonlari va xalqaro hamkorlik aloqalarining kengayib borayotgan sharoitida MHXS'ni amaliyotga tatbiq etish zaruriyati bilan uzviy bog'liqdir. Bu omillar moliyaviy hisobot tizimini takomillashtirishni nafaqat milliy manfaatlar, balki xalqaro moliyaviy maydondagi ishtirokchilar bilan samarali integratsiyalashuv yo'lidagi muhim qadam sifatida talqin qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Energetika sohasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish masalasi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Ilmiy manbalarni tahlil qilish mazkur mavzuning turli konseptual va amaliy jihatlarini yorituvchi tadqiqotlar spektrining mavjudligini tasdiqlaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida MHXS joriy etilishining tarixi va mexanizmlari Gelter va Kavame (2014) tomonidan chuqur tahlil etilgan bo'lib, ular MHXS'ning konseptual asoslarini anglo-amerika buxgalteriya an'analari bilan bog'laydi va ularning US GAAP bilan strukturaviy o'xshashliklarini ta'kidlaydi[2]. Biroq, kontinental Yevropa davlatlarida MHXS'ni tatbiq etishda madaniy va institutsional omillar hal qiluvchi rol o'ynagani, Yevropa Komissiyasining 2005-yildan yirik kompaniyalar uchun MHXS'ni majburiy joriy qilganidan keyin tizimda bosqichma-bosqich barqarorlashuv yuz bergani isbotlangan.

O'tish iqtisodiyotidagi davlatlar tajribasiga oid muhim tahlil Albu va Albu (2012) tomonidan Ruminiya misolida olib borilgan bo'lib, unda milliy buxgalteriya madaniyati xalqaro standartlarga mos kelmagan sharoitda MHXS'ning faqat formal darajada qabul qilinishi amaliy natijalarning zaifligiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan[3]. Mualliflar samarali joriy etish uchun qonun ustuvorligi, bozor munosabatlari va korporativ boshqaruv kabi institutsional poydevorlarning mustahkam bo'lishini zaruriy shart sifatida asoslab bergan.

Energetika tarmog'ining o'ziga xos texnik va iqtisodiy xususiyatlari kontekstida MHXS'ni amaliy qo'llashdagi murakkabliklar Ahmedjonov K.B. va hammualliflar (2022) tomonidan o'rganilgan[4]. Tadqiqotda uzoq muddatli kapital investitsiyalar, tariflarning davlat tomonidan tartibga solinishi va asosiy vositalarning uzoq xizmat muddati kabi omillar MHXS'ni qo'llashda texnik va hisob siyosati bo'yicha muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqarayotgani qayd etilgan. Ayniqsa, asosiy vositalarni qayta baholash, davlat subsidiyalarini hisobda to'g'ri aks ettirish jarayonlari energetika korxonalari uchun alohida murakkablik tug'dirishi ko'rsatilgan.

So'nggi yillarda esa MHXS'ni barqaror rivojlanish mezonlari bilan integratsiyalash tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) yondashuvlari bilan MHXS o'rtasidagi integratsiya yangi ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Xalqaro Barqarorlik Hisobotlari Standartlari Kengashi (ISSB) tomonidan 2023-yilda ishlab chiqilgan MHXS S1[5] va S2[6] standartlari korxonalar moliyaviy hisobotida ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham ifodalash zarurligini belgilab beradi. Energetika sohasi ekologik ta'sir darajasi yuqori bo'lgan tarmoq sifatida ushbu standartlarni joriy etishda ilg'or pozitsiyada bo'lishi zarur.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, MHXS'ni joriy etishning nazariy asoslari va umumiy amaliy tamoyillari yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, aynan O'zbekiston Respublikasi energetika sektori sharoitida MHXS'ni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari, institutsional sharoitlari va tartibga solish strategiyalari



yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish, mavjud muammolarni chuqur o'rganish va ularning hal etish yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi energetika sohasining strukturaviy murakkabligi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish jarayonining ko'p aspektli xarakterini inobatga olgan holda kompleks yondashuv asosida shakllantirildi. Tadqiqot davomida turli ilmiy usullar sintezi orqali tahlil obyekti bo'lgan energetika sektorining holatini har tomonlama o'rganish va uni tizimli tahlil qilishga erishildi.

Tadqiqotning metodologik bazasini tizimli tahlil usuli tashkil etdi. Ushbu usul orqali O'zbekiston Respublikasi energetika tarmog'ining barcha tarkibiy qismlari va ularning o'zaro funksional aloqalari o'rganildi. Tizimli yondashuv asosida energetika korxonalarining ichki moliyaviy strukturasidan tortib, ularning tashqi boshqaruv va hisobot mexanizmlarigacha bo'lgan butun boshqaruv zanjiri tahlil qilindi.


Solishtirma tahlil usuli esa xalqaro tajribani qamrab olishda muhim ahamiyat kasb etdi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya va boshqa rivojlanayotgan davlatlar tajribasi asosida MHXS'ni joriy etish amaliyoti, institutlararo muvofiqlashtirish, hisob siyosati xususiyatlari hamda transformatsion bosqichlar o'rganildi. Bu usul orqali o'zbek modeli uchun moslashuvchan va real mexanizmlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Statistik tahlil usuli esa empirik ma'lumotlarni sifat va miqdor jihatidan chuqur tahlil qilishda qo'llanildi. Tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Bosh prokuraturaning iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi hamda xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, ISSB, IEA) rasmiy hisobotlari va ochiq manbalardagi statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Bu orqali energetika sektorining rivojlanish tendensiyalari, investitsion oqimlar, ishlab chiqarish hajmi, tarif siyosati va aktivlar tarkibi bo'yicha puxta asoslangan natijalar olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston energetika sektorining institutsional arxitekturasiga so'nggi yillarda keng ko'lamli restrukturizatsiyani boshdan kechirmoqda. Boshqaruv tizimida amalga oshirilgan institutsional o'zgarishlar tarmoqning korporativ inshootini tubdan o'zgartirdi.

O'zbekiston Respublikasida sohani muvofiqlashtirish va boshqarish quyidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi (1-rasm).



1- rasm. O'zbekiston Respublikasida energetika sohasini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar¹

2023-yil oxirida tashkil etilgan Energiya bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi energetika tarmog'ida regulativ funksiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lib, u bozor ishtirokchilarini litsenziyalash, tarif siyosatini belgilash hamda energetika xizmatlari sifatini nazorat qilish kabi asosiy vazifalarni bajaradi[7]. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tarmoqning struktural taqsimoti siyosatini ishlab chiqish hamda strategik rejalashtirish faoliyatini yuritishda davom etmoqda.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.




Moliyaviy hisobot tizimidagi institutsional o'zgarishlar energetika tarmog'ida korporativ boshqaruv va moliyaviy shaffoflik standartlarining tubdan yangilanishiga olib keldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi "Elektr energetika to'g'risida"gi O'RQ939 Qonuniga² ko'ra, energetika korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar (MHXS) asosida tuzish talabini belgilab berdi[8]. Bu o'zgarish xalqaro investorlarga mo'ljallangan hisobotlarning aniq, ishonchli va solishtiriladigan bo'lishini ta'minlash maqsadida joriy etilgan.

O'zbekiston energetika korxonalarining amaldagi moliyaviy hisobotlari tahlili ushbu tizimdagi mavjud standartlarning xalqaro talablar bilan moslik darajasini baholash imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy hisob standartlariga asoslangan hisobotlarda xalqaro investorlar uchun tushunilishi qiyin bo'lgan tafsiliy tafovutlar mavjud. Bu, ayniqsa, issiqlik elektr stansiyalarining moliyaviy hisobotlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Asosiy fondlarni baholashda struktural muammolar kuzatiladi. Milliy buxgalteriya standartlari bo'yicha asosiy vositalar tarixiy (dastlabki) qiymatda aks ettiriladi. Biroq, MHXS talablariga ko'ra, muayyan aktiv turlari, ayniqsa uzoq muddatli aktivlar, odilona (haqiqiy) qiymatda baholanishi lozim. Bu esa ikkala yondashuv orasida sezilarli qiymat tafovutlariga olib keladi, natijada xalqaro investorlar uchun moliyaviy ko'rsatkichlarning iqtisodiy mohiyatini to'g'ri talqin qilish qiyinlashadi.

Elektr energetika korxonalarida MHXS'ni amaliy joriy etish jarayonida bir qator texnik, institutsional va tashkiliy muammolar kuzatilmoqda. Ularning asosiy turlari va ehtimoliy yechimlari quyidagi sxemada tizimli ko'rinishda taqdim etilishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. Elektr energetika korxonalarida MHXS joriy etish jarayonidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari³

Turli mamlakatlarda MHXS joriy etish tajribasi tahlili O'zbekiston uchun optimal strategiyani aniqlashda asos bo'ldi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2005-yildan majburiy tarzda amalga oshirilgan MHXS joriy etish tajribasi bosqichli yondashuvning samaradorligini isbotlaydi.

Qozog'iston energetika korxonalarida 2018-yildan boshlab MHXS joriy etish tajribasi post-sovet mamlakatlari uchun alohida o'rin egallaydi. Qozog'iston tajribasi ko'rsatishicha, milliy standartlardan xalqaro standartlarga o'tish 3-4 yillik davr va katta tayyorgarlikni talab qiladi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi "Elektr energetika to'g'risida"gi O'RQ939 Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-7051573>

3 Muallif tomonidan tuzilgan.



Tadqiqot natijalarida energetika korxonalarida MHXS muvaffaqiyatli joriy etish uchun tizimli yondashuv talab etilishi aniqlandi. Korxonalarda mutaxassis kadrlarni tayyorlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Xalqaro sertifikatlash dasturlari va amaliy treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFNOMA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi energetika sektorida MHXS'ni joriy etish zamonaviy iqtisodiy sharoitda strategik zarurat ekanligini to'liq isbotladi. Energetika sohasining hozirgi rivojlanish trayektoriyasi va amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot tizimini joriy etish uchun qulay institutsional muhitni shakllantirmoqda. Tadqiqot natijalariga asosan, energetika korxonalarida MHXS'ni joriy etishning asosiy strategik afzalliklari investitsion jozibadorlikni oshirish, korporativ shaffoflikni ta'minlash va xalqaro moliyaviy bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Bu esa mamlakatning 2030-yilgacha belgilangan energetika strategiyasi maqsadlariga erishishda muhim katalizator roli o'ynaydi[9].

MHXS'ni joriy etish orqali energetika korxonalari xalqaro sarmoya oqimlariga yaqinlashish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qulay shart-sharoitlarga ega bo'ladi. Bu esa, oxir-oqibatda, mamlakatning energetika sektorini barqaror va innovatsion rivojlantirish strategik maqsadlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2024). Energiya bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish bo'yicha axborot. <https://gov.uz/oz/minenergy/news/view/32085>
2. Gelter, M., & Kavame, R. (2014). Whose Trojan Horse? The dynamics of resistance against IFRS. *Corporate Governance Law Review*, 15(3), 89-112.
3. Albu, C. N., & Albu, N. (2012). Factors associated with the adoption and implementation of IFRS in developing countries. *Journal of International Financial Management & Accounting*, 23(3), 220-256.
4. Ahmedjonov, K. B., Karimov, A. A., & Yuldashev, Sh. M. (2022). Elektroenergetika korxonalarida MHXS joriy etishning o'ziga xos jihatlari. *Iqtisodiyot va moliya*, 8(4), 45-62.
5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi (ISSB). (2023). MHXS S1: Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotni oshkor qilish bo'yicha umumiy talablar.
6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi (ISSB). (2023). MHXS S2: Klimat bilan bog'liq axborotni oshkor qilish.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-166. (2023). Elektr energetikasida raqobatbardosh bozorni shakllantirish va tarmoq subyektlarini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida. [president.uz](https://lex.uz/ru/docs/-7051573)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi "Elektr energetika to'g'risida"gi O'RQ939 Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-7051573>
9. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2020). 2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash Konsepsiyasi.
10. Davletov, I., Fayziyev, O., & Umarova, Z. (2023). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiyalash tamoyillari. *Markaziy Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali*, 2(5), 148-151. <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/14671>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>